

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 28 (66309)
2001 yil 13 iyul, juma

Sotuvda erkin narxda

BAYRAMLARGA YETAKLAR TADBIR

Mustaqilligimizning 10 yilligi va «Onalar va bolalar yili» munosabati bilan Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumanida joylashgan «Oymoma» istirohat bog'ida «Tuman yoshlari giyohvandlikka qarshi» shiori ostida katta tadbir o'tkazildi.

-Tuman hokimi Mirjalilov Adham Jamilovich tashabbusi o'laroq bo'layotgan bu tadbir endi har haftaning shanba kunlari o'tkaziladi, - deydi tuman Xalq ta'limi bo'limi bolalikni himoya qilish nazoratchisi Omila Oripova.

Shu kuni tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri A. F. Rahmatullayev tomonidan eng a'lochi maktab bitiruvchilariga qimmatbahol sovg'alar topshirildi. Sovg'a olgan Musayeva, Mo'minova, Xolmatova, Usmonova, Mo'minov, Mirzayev, Po'latova, Rashidova, Dadayeva, Rohataliyeva o'z navbatida yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik uchun minnatdorlik bildirdilar. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuman bo'limi raisi Islomova

Gulchehra Eshpo'latovna esa tuman miqyosida e'lon qilingan giyohvandlikka qarshi kurash mavzusidagi eng yaxshi devoriy gazeta sohiblariga esdalik sovg'alarini topshirdi. Giyohvandlikning jirkanch manzarasini juda mahorat bilan ifoda etgan 326-maktab jamoasi faxriy birinchi o'ringa sazovor bo'lishdi. Ikkinchi o'rin 24-maktab o'quvchilariga nasib etdi. Uchinchi o'ringa ikkita - 234- va 249-maktablar loyiq deb topildi. Tadbirning badiiy qismi tomoshabinlar ko'ngliga ko'tarinkilik kayfiyatini armug'on etdi. Unda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist G'iyos Boytoyev, qiziqchilardan Hojiboy Tojiboyev, Sohibjon Mamasoliyev, «Alyor» guruhi va yosh tomoshabinlar teatrining aktyorlari ishtirok etdilar. Tuman aholisi esa shunday tadbirning endilikda har haftada nishonlanishidan behad xursand. Negaki, bayramona bezatilgan istirohat bog'ida farzandlari bilan dam olib, konsert tomosha qilib, hordiq chiqaradilar-da!

Muzaffar PIRMATOV.

Odatda o'zbek oilasida o'g'il farzand dunyoga kelsa, shu xonadonga ustun bo'ladi, deyishadi. Biz sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan bu oilada esa bir emas, to'rt nafar «ustun»lar kamol topishyapti, Samandar, Durbek, Sherbek, Shuhratjon. Har biri intiluvchan, jiddiy bolalar. Durbek akasi Samandarning «o'ng qo'li». Qaysi ma'noda deysizmi? Hamma ma'noda. O'zingizdan qolar gap yo'q, qizi yo'q

uchun ota-onasi unga boshqotirmali kitoblar olib kelishardi. Durbek ularni yechishga shunchalik berilib ketardiki, hatto kunning qanday o'tib ketganini ham sezmay qolardi. Ba'zan, boshqotirmadagi mana bu so'zning o'rniga, bunisi ishlatilsa, yanayam jumboqliroq chiqarmidi, deya o'ylanib ham qolardi. Shunday kunlarning



“NOBEL” MUKOFOTINI
ORZULAGAN BOLA


birida miyasiga bir ajoyib fikr keldi: o'zim ham boshqotirma tuzib ko'rsam-chi... Juda ko'plab o'qib chiqqan badiiy kitoblari unga qo'l keldi.

oilada pishir-kuydir, supir-sidir kabi barcha yumushlar asosan onalarimiz zimmasiga tushadi. Bu oilada esa unday emas. Samandar osh damlasi, Durbek sabzi, piyoz artadi. Sherbek uy tozalasa, Shuhratjon uning yordamchisi bo'ladi. Xullas, bu oilada «senikimeniki» degan gap bo'lmaydi...

Bugun ulardan biri - Durbek haqida hikoya qilmoqchimiz. U Shayxontohur tumanidagi Sadridin Ayniy nomli 84-maktabning 9-sinfida a'lo baholarga o'qiydi.

Ikki yil avval Durbek buyrak xastaligi bilan og'rib qoldi. Uzoq muddat kasalxonalarda davolanishiga to'g'ri kelgani bois, maktabga ham qatnay olmadi. 7-sinfni uyda o'qidi hisob. Har kuni bo'sh soatlarida ularnikiga kelib, Durbek bilan dars o'tgan mehribon ustozlari-Matluba opa Turdiyeva, Zahro opa Yahyoyeva, Noila opa Sodiqovalardan behad minnatdor...

Kasalxonada zerikib qolmasligi



Dastlabkilari unchamasu keyinchalik tuzgan boshqotirmalarini yechish uchun akasi, ukalari, hatto ota-onasi ham yaxshigina bosh «qotirishdi». O'ziga ustoz deb biladigan Ilhom Zoirovdan boshqotirmalar tuzishning siru sinoatlarini o'rgana bordi. «Huquq» gazetasida unga «oq yo'l» tilashganida, «Zakovat» gazetasida e'lon qilingan tanlovda kuchli o'nlikka kirib, sovrinlar

olganida sevinchi dunyoga sig'may ketdi. Ko'plab badiiy kitob o'qigani bois, hech ikkilanmay Respublika bolalar kutubxonasida o'tkazilgan respublika miqyosidagi ko'riktanlovda ishtirok etib, 3-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi.

Ayni ta'til kunlarida ukalari bilan birgalikda boshqotirmalar tuzish - eng sevimli mashg'ulotiga aylangan. 9-sinf darsliklari bilan allaqachon tanishib chiqdi. Mashq qilayotgan she'rlarini esa hozircha hech kimga o'qitmayapti. Yoshligida qayta-qayta takrorlaydigan: «Men albatta Nobel mukofotini olaman» degan gapini aytib berishganida, Durbek xijolat bo'lib ketdi, «bu bolalik orzulari edi-ku» deb qo'ydi ohista. Bu bolalik orzusi ijobat bo'lishini, moliya litseyiga o'qishga kirib, yurtimiz iqtisodiyotini ko'tarish ishtiyoqidagi niyatlari amalga oshishiga astoydil tilakdoshmiz. Tengdoshingiz Durbek Sadirov tuzgan boshqotirmani yechishni istasangiz, gazetamizning so'nggi sahifasiga qarang.

Feruza JALILOVA.

KICHKINA RASSOM

Bobur kecha o'ylab qo'ygan maqsadi bo'yicha shaharga chiqdi. Uning qo'lida turli bo'yoqlar, qog'oz va mo'yqalamlar bor edi. Ko'zlangan manziliga yetib kelgach, asboblarini o'rnatdi-da, atrofni sinchkovlik bilan kuzatdi. Keyin qo'lini tez-tez harakatlantirib, oq qog'ozga rasm chiza boshladi. Chizgan rasmiga qaradi.

Nimadir yetishmayapti, shekilli. Ko'zi bilan baland-baland binolar orasida sharqona go'zallik bilan shaharga yanada ko'rk bag'ishlayotgan «Ko'kaldosh» va uning atrofidagi odamlarga tushdi. Chunki ular hammadan o'zlarining o'zbekona liboslari bilan ajralib turardilar. Bobur bu manzaraga qarar ekan, mustaqil O'zbekistonimizning uzoq tarixi ko'z oldida gavdalandi. U yo'qotgan narsasini topgan kishidek entikib ketdi. Ana, kamchiligini topdim, dedi u o'ziga o'zi. Bobur atrofga bir qarab olgach, ko'z o'ngida namoyon bo'lgan manzarani tong ko'rinishida chiza boshladi.

Nihoyat rasm ham tayyor bo'ldi. Keyin rasm ostiga «Shahrimiz tongi» deb yozib qo'ydi.

U tush paytida uyiga xursand qaytdi. Chizgan rasmini oyisiga ko'rsatdi. Oyisi mamnun bo'lib: - Juda yaxshi chizibsan, o'g'lim. Katta bo'lganingda, yaxshi rassom bo'lasanmi deyman, - dedi.

- Hozir-chi? - dedi erkanib Bobur.
- Hozircha kichkina rassomsan.

Nodira QURBONOVA.

Men «Tong yulduzi» tahririyatida tashkil etilgan «Yosh qalamkashlar» to'garagiga qatnashaman.

Ya qinda gazetada mening

«Yaxshilik» deb nomlangan maqolam va kichkinagina she'rim e'lon qilinibdi.

Biroq «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lmaganligim sababli maqolam chiqqan gazetani qo'limga ololmadim. Oyijonim bilan gazeta do'konlaridan ham surishtirdik. Ammo do'konchi amakilardan «sotib bo'ldik, qolmadi», degan bir xildagi javobni oldik.

Shunda oyijonim «Hozir ham gazetaga qizimini obuna qilsam bo'ladimi?» deb so'radilar. Ular esa

«Albatta bo'ladi» deyishdi. Biz o'sha zahotiy oq «Tong yulduzi»

gazetasiga avgust oyidan boshlab obuna bo'lib keldik.

Endi men o'z gazetamni do'konlardan izlab yurmayman, balki «Tong yulduzi»ning o'zi meni izlab uyimga keladi.

Dilyora ERKINOVA,
Shayxontohur tumanidagi
45- maktabning
5- sinf o'quvchisi.



KASAL BO'LISHGA HAQQIM YO'Q

Bilasizmi, mening shunday ajoyib do'stlarim borki, ular haqida soatlab gapirsam ham ozlik qiladi. Agar istasangiz men bir voqeani sizga so'zlab beray.

Bir kuni men kasal bo'lib qoldim. Maktabga bora olmadim.

Ertasiga yonimga xabar olgani kelishdi. Uzoq gaplashdik. O'qituvchimiz Mohira opa mendan xabar olib kelishni Bahodir bilan Soliga aytgan ekanlar. Ularga qo'shilib boshqa bolalar ham oldimga har kuni keladigan bo'lib qolishdi va menga maktab bog'idagi olmalardan keltirishdi.

Men tuzalдим. Onam va dadam bunday do'stlari bor bolaning kasal bo'lishga haqqi yo'q, deyishdi.

Bolalar, sizlar ham mening do'stlarim kabi inoq bo'linglar.

*Omon MARDIYEV,
Sirg'ali tumani.*

XATLAR TEGIRMONI



IQTISOD - BU HAYOT

Men iqtisod fanini sevib o'qiyman. Haqiqatan ham hayotni iqtisodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Masalan, oddiy oilaning kirim-chiqimini olaylik. Agar oila boshlig'i yaxshigina iqtisodchi bo'lsa, u oila mablag'ini to'g'ri sarflaydi. Xarajatlari barakali bo'ladi. Biri ikki bo'ladi. Dang'llama uylar qurib, o'g'il uylantiradi, qiz chiqaradi, qator mashinalari bo'ladi. Ehtimol mening fikrim faqatgina moddiy boylikka qarab ketgandir. Aslida ham shundayda, to'g'rimi do'stlar. Yaxshi iqtisodchining oilasi butligidan dalolat.

Yoki aksincha olib qaraylik. Oila boshlig'i iqtisodni hech ham bilmaydi. U holda uning kosasi oqarmaydi. Uyidan baraka ketadi. Bu yaxshi emas. Shuning uchun keling, do'stlarim,

iqtisodni,
hunarni o'rganaylik.

Hayotimizni go'zal va to'kin qilish o'zimizning qo'limizda.

*Aziz MAMATQULOV,
6-sinf o'quvchisi.*



DUO OL

Dushanba kuni edi. Bir qari bobo bozorda yukini ko'tarolmay xunob bo'lib o'tirgan edi. Yonidan o'tayotgan 20-21 yasharli bir yigitga: «Hoy, o'g'lim mana bu yukni uyimgacha olib borib qo'y, duo qilaman», dedi. Biroq u yigit eshitmaganday yo'lida davom etaverdi. Men ham o'tib ketmoqchi bo'ldim lekin qo'lidagi sabzavotlar solingan og'ir xaltani ko'rib, rahmim keldi. Bir qo'lida tugun ham bor edi. «Buvajon, yuqingizni menga bering, men olib borib qo'yaman», dedim-da, og'irligini bildirmay yo'lga tushdim.

Nihoyat, chol ko'rsatgan qizil eshikka yetib keldik. Eshikni taqillatdik. Kampirning o'g'li xaltalarni qo'limizdan olib, meni uyga taklif qildi. Uyga kirdim. Choy ichdim, ovqatlandik. Men uyimga ketdim. Chol meni duo qildi.

*Dilshod USMONOV,
Akmal Ikromov tumanidagi 203-
maktabning
4-sinf o'quvchisi.*

«TADBIRKOR» G'OLIB BO'LDI

Ta'til kunlarida bizning maktab-internatimiz o'quvchilar bilan gavjum. Yaqinda «Biz iqtisodchi bo'lamiz» ko'rik tanlovi o'tkazildi. Ushbu tanlovda 6-sinflarning «Menejer» va «Tadbirkor» guruhleri ishtirok etdi. Guruhlarning xaridorgir mahsulot tayyorlash shartida ular yasagan mahsulot chiroyiligi, sifati, bejirimligi va miqdoriga ko'proq e'tibor berildi. «Eng yaxshi reklama» sharti barchaning diqqat e'tiborida bo'ldi.

Tanlov davomida boshqotirmalar, ziyraklik o'yinlari kabi shartlar bajarildi.

Tadbir yakuniga ko'ra «Tadbirkor» guruhi a'zolari 73 ball to'plab, g'oliblikni qo'lga kiritdi. O'quvchilar talab va taklif, menejment, xususiyashtirish, mulk turlari, birja va bank haqida yanada ko'proq tushunchalarni oldilar.

*Abdumannop RAHIMOV,
Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi
3-iste'dodli bolalar maktab-internatining
6-sinf o'quvchisi.*

IQTISODCHI BO'LAMAN

Bizning maktab-internatimizda 1-sinfdan boshlab iqtisod fani o'rgatiladi. Mana olti yildirki biz bu fanga o'zgacha mehr berganmiz. Ustozimiz Ra'no opa Choriyeva har bir mavzuni turli o'yinlar, boshqotirmalar, sahna ko'rinishlari yordamida bizni qiziqtirganlar-da.

Men iqtisodni go'yo ishbilarmonlar, zukkolar, bilimdonlar yashaydigan olam kabi tasavvur qilaman.

O'tgan yili do'stim Abdumannop bilan birga iqtisod fanidan o'tkazilgan «Iqtisodiyotdan saboqlar» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, rag'batlantiruvchi sovrin bilan mukofotlangan edik.

Ta'til kunlarida iqtisod fanini yanayam chuqur o'rganishga kirishdik. Chunki men katta bo'lsam iqtisodchi bo'lmoqchiman.

*Ruslan BIKMETOV,
6-sinf o'quvchisi.*

QABR USTIDA SO'LIGAN GUL

Inson umrini oqar daryoga qiyoslashadi. Daryolarning bir maromda, osuda oqqani yaxshi. Shoshqaloqlik bilan oqib o'tsachi...

Navqiron 37 yoshida suyuqli yorini, uch nafar o'g'lini dog'da qoldirib, kelmas yo'llarga ravona bo'lgan Aziza ismli xolamning hayotini shoshqin daryolarga qiyoslagim keladi.

Dardi ancha o'tib ketgani bois, ne-ne-shifokorlar qo'lida ham shifo topa olmadilar. Xolamning so'lg'in qiyofasi, kirtaygan ko'zlari, qo'lidagi bo'rtib chiqqan tomirlari ko'z o'ngimda muhrlanib qoldi. Ko'pincha boshi va belidagi qattiq og'riqdan shikoyat qilar, rang-ro'yi esa kundan-kunga so'lib borardi...

Nihoyat, o'sha mash'um kun keldi. Kenjatoyini mahkam bag'riga bosib uyquga yotdi-yu qaytib turmadi.

Nazarimda inson umri yillar bilan emas, qilgan xayrli ishlari bilan o'lchanadi. Shu ma'noda shirinso'z, mehribon va dilkash Aziza xolam juda uzoq umr ko'rdilar. Chunki navqiron, azamat uch o'g'lonni tarbiyalab, kamol toptirdilar. Ruhlarini farzandlarini qo'llab-quvvatlab yursin.

*Samixa
MIRZAMUHAMEDOVA,
Toshkent shahri.*

Ko'pchilik bolalar buva va buvilari bilan faxrlanishadi. Shular qatorida men ham buvajonim bilan faxrlanaman. Ular mahalladagi eng yoshi ulug'lardan birilar. 1903 yilda tug'ilganlar. Buvamning yetti nafar farzandlari bor. 38 ta nevara, 81 nafar avara va 7 nafar chevaralari bor. Barchamiz buvamning atrofidan ketmaymiz. Chunki ular bizni juda yaxshi ko'radilar. Ertaklar aytadilar, rivoyatlardan so'zlab beradilar. Har gaplarining birida «Hamisha tinchlik, xotirjamlik bo'lsin» deyidilar. Chunki tinchlik, xotirjamlik bo'lgan yurtning onalari go'zal,

bolalari quvnoq bo'larkan-da.

Bobojonim urushning og'ir kunlarini boshlaridan

kechirganlar. Urush har bir oilaga ko'ngilsizlik olib kelishini qayta-qayta aytadilar.

Ayni kunlarda buvam Achavot mahallasiga oqsoqollik qilayaptilar. Mahallada bo'ladigan to'yu ma'rakalar ularsiz o'tmaydi. Yoshu keksa ulardan maslahat oladi. Chunki buvajonim barchaning ko'nglini topa oladigan donishmand insonlar.

Baxtimizga buvajonim kabi donishmand insonlar sog'-salomat bo'lsin. Ularning borligidandir xonadonimiz fayzi, tarovati!

*Gulbahor ZOKIROVA,
Sobir Rahimov tumanidagi
111- maktabning
5-sinf o'quvchisi.*

ONALARI GO'ZAL, BOLALARI QUVNOQ YURT



«EKOSAN»- QORAQALPOG'ISTON- 2001

Bolalar, Respublikamizning ekologik jihatdan noqulay mintaqalari hisoblangan Surxon vohasi, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikalarida «EKOSAN» Xalqaro jamg'armasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston temir yo'llari hamkorligida aholi sog'lig'ini saqlash borasida ko'plab yaxshi ishlar qilinayotganidan xabaringiz bor.

Yaqinda Surxon vohasi

aholisini ijtimoiy-ekologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida shu vohada bo'lib qaytdilar.

Katta tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali shifokorlardan iborat bo'lgan brigada 12 kun davomida surxondaryoliklarga tibbiy yordam ko'rsatdilar. Shu vaqt mobaynida ular viloyatdagi Uzun, Sariosiyo, Denov, Oltinsoy, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Termiz tumanlari va Termiz shahrida bo'lib, 15366 nafar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatdilar.



Bolalar orasida buqoq bilan og'rish Sariosiyo va Uzun tumanlarida yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu kasallik yod m o d d a s i yetishmasligidan kelib chiqishi, hozirgi kunda yer yuzining

ko'plab mintaqalarida sezilarli darajada ko'payishi aniqlangan. Buqoq kasalligi qalqonsimon bezining paydo bo'lishi va kattalashishi insonda aqliy va jismoniy rivojlanishning pasayishiga olib keladi.

Mutaxassislar aholining sog'lig'ini yaxshilash maqsadida kerakli maslahat va muolajalar qildilar. Har xil doridarm on l a r ,

SALOMATLIK POYEZDI NING YORDAMI

«Darmon-oksil» preparati, tibbiyot jihozlari, «Polisept» dezinfeksiyalash vositasi, mebel kabi 15 million so'mlik insonparvarlik yordamini shifoxonalarga, mehribonlik uylari va tug'ruqxonalarda kam ta'minlangan oilalarga tarqatildi.

Shu kunlarda ana shunday «Salomatlik poyezdi» va taniqli san'atkorlardan iborat guruh Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'ladilar. Orol bo'yi zaminida ekologik muhitning yildan-yilga yomonlashishi, yer qatlami va havoda tuzlarning miqdori ko'payib ketishi natijasida vohada yashayotganlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatayapti. Hozirda butunjahon muammosiga aylangan bu vohada Orol aholisining sog'lig'ini yaxshilashda ko'plab ishlar qilinayapti. Quvurlar orqali ichimlik suvi keltirildi. Nukus-Uchquduq temir yo'lining bir qismi ishga tushirildi.

Chexiya Respublikasi elchixonasi hamkorligida tashkil etilgan navbatdagi «Salomatlik poyezdi»- Nukus shahriga jo'nab ketdi.

Temur RO'ZIMATOV.

Kuni kecha respublikamizning 25 Oliy o'quv yurtida ta'lim olgan 1800 nafar magistrantlarga ilk magistrlik yo'llanmalari topshirildi. Bular orasida O'zbekiston Jahon tillari Universitetining 66 nafar magistrantlari ham bor. Universitetda shu shodiyonaga bag'ishlab katta bayram tantanasi bo'lib o'tdi. Oliy o'quv yurti hududidagi ochiq radiolashirilgan maydon

ILK QALDIRG'OCH

bayramona bezatilgan. O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangradi. Shohsupa yonidagi baland dastaklarda davlat bayrog'i ko'tarildi.

Tadbirni O'zbekiston Jahon tillari Universitetining prorektori Dilrom Bobojonova ochdi. U yaqindagina yurtboshimizning bitiruvchi magistr l a r g a yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi. Bitiruvchilar ko'zida yosh qalqidi. Ularni qutlug' kunlari bilan qutlagani kelgan ota-onalari, yaqinlari yuragidagi quvonch, hayajon ham sevinch yoshlariga aylandi. So'ngra ilk bor bitiruvchi magistr l a r g a diplom va ko'krak nishonlari tantanali ravishda topshirildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining a'lochi bitiruvchilarga atalgan qimmatbaho sovg'alarini olgan magistrantlarning quvonchiga ota-onalar ham sherik bo'lishdi.



Bitiruvchilarni ustozlar, ota-onalar tabriklashdi. Xorijlik mehmonlarning bitiruvchilarga bildirgan samimiy tilaklari hammani lol qoldirdi. Magistrantlar ham ulardan qolishmadi. Birlari ingliz, birlari nemis, yana birlari fransuz tilida o'z tengdoshlarini tabriklashdi. Ustozlarga ta'zim bajo aylashdi. Ota-onalarini ham yoddan chiqarishgani yo'q. Ayniqsa ilk magistrant bitiruvchilar qasamyod qabul qilishganda marosimga kelgan universitet

talabalari, litsey o'quvchilari ularga havas ila boqishdi.

Unda jumladan shunday so'zlar bor: ... Ustozlarimiz bergan fотиhasini oqlashga, ilm-fan cho'qqilarini egallashga, keyingi avlodni barkamol yetuk qilib tarbiyalashdek xayrli ishlarga bor kuchimizni safarbar etishga qasamyod qilamiz.

Aziz o'quvchi! Siz ham maktabda olayotgan bilimingiz puxta bo'lishiga erishsangiz, albatta ana shu aka-opalaringiz singari magistrlik diplomi va «O'zbekiston magistri» degan nishonga ega bo'lishingiz shubhasiz.

Adibaxon RAHMATULLAYEVA, O'zMU jurnalistika fakulteti.

Milliy qadriyatlar va folklorning mavjudligi xalqning tarixini va qudratini anglatadi.

-Bizda ham qadimdan qo'shiqchilik bor,-deydi Saudiya Arabistoni podshohligining O'zbekistondagi elchi vazifasini bajaruvchi Zohir Mu'tish al-Aniziy janoblari, - Saudiya folklori Toif va Jidda mintaqasiga ajraladi. Xalq

ham kuzatiladi. Saudiya Arabistonining joylashishi va kengligi bois milliy qo'shiqlar xalq folklori, urush vaqtidagi qo'shiqlar bilan aralashib, Al-arda an-najdiya ko'rinishida tus olgan. Shu bilan birga g'azalshunoslik, muhabbatga taalluqli, do'stlik va qarindoshlikni tarannum aylovchi ayollar bor. O'zbek xalqining maqomi,

BIZNING SUEIBAT





MADANIYAT - MILLAT KO'ZGUSI

folklori, saudiy-sharqiy qo'shiqlaridan tashqari sharq va g'arb mintaqasining o'ziga xos yo'nalishlari mavjud. Fors, Misr va Afrika folklorlari aralashgan hollari

ular insoniy fazilatlarini ulug'lovchi, o'zaro rishtalarni mustahkamlovchi vazifani o'taydi. Mashhur zamonaviy saudiyalik qo'shiqchilardan Talal Maddax, Muhammad Abdu, Muhammad Amar, Ali Abdul Karim, Abdulmajid Abdullo, Salam al-Abdullolarning qo'shiqlarini barcha arab mamlakatlari maroq bilan tinglaydilar. O'zingizga ma'lum, bizda ayollar katta ommada qo'shiq aytishmaydi. To'g'ri, ayollar dastalari mavjud, biroq ular faqatgina qizlar majlisida, ayollar bazmida, nikoh marosimlaridagina kuylaydilar. Ularning orasida ham mashhur bo'lganlari Ibtisom Mufti, Sara, Itab kabi qo'shiqchi

folklori, milliy qo'shiqlarini maroq bilan tinglayman. Xuddi saudiy qo'shiqqa o'xshaydi. Hatto musiqa asboblari ham o'xshashlik mavjud. Doira tablaga, rubob, tor udga monand. Bizda ham yerda o'tirib, davra olib qo'shiq kuylaydilar. Bilasizmi, milliy liboslarda hayo va sharm ila xirom aylayotgan raqqosalar ham e'tiborga loyiq. Madaniyat millatning ko'zgidir. Biz kabi xorijliklar e'tiboriga havola etilayotgan san'atga qarab xalqning g'ururini, qudratini anglab olish qiyin emas.

Muharrama PIRMATOVA yozib oldi.



OYNI OLIB BERING

-Oyi, oyni olib bering, Olib bering quyoshni. Cho'ntagimga oyga qo'shib Solib bering quyoshni.

-Suvga tushsa qarmog'imni Solib tutib olaman. Xushi uchsa pufak qilib Bog'laydigan bolaman!

-Bu gapingdan oy-quyoshning Xushi uchib ketadi. Seni ko'rsa osmonidan Suvga tushib ketadi.

-Sen shunaqa hamma ishga Qodir bola bo'l bolam! Zukko, ishchan bolalarga Charog'ondir bu olam!



FRAVARDIN YASHT

1. Axura Mazda dedi
Spitama Zardushtga:
«Fravarshilardan¹, kelar»
Kuchu qudrat haqida,
Ko'mak, yordam bobida
Ularning zo'r yengilmas
Kuch-qudrati haqida
Senga so'zlab berayin.
Qay tarz ular men tomon
Ko'makka shoshar chaqqon
Ular qay tarz qo'llaydi
Mo'min fravarshisin
Menga yordam yo'llaydi.
So'ylab berayin endi.

2. Men samoni tepada
Nurafshon, porloq qilib
Adl tutib turaman.
Ko'k gumbazi men uchun
Tuxum misol zaminni
O'rab turar har yondan²
Bul zaminni mustahkam
Tutib turar Ulug' Ruh.
Uning chek- chegarasi
Bo'lgan emas hech qachon.
Laxcha cho'g' ma'dan tana
Uch qism iqlim uzra
Yarqirab turar, ana.³

3. Yerni o'ragan samo
Yulduz qadab bezalgan
Azalda Ruhdan paydo
Libosdir Mazda kiygan.
Bu kiyimning etagin
Tutib boradi Mitra,
Rashnu bor ham bir tomon
Ispan davlat bir tomon
Etagining chetlarin
Ko'rmas kimsa hech qachon.³

4. Osmon, yulduzlar va Farn
Yordamida, o Zardusht
Ko'makdoshman Ardvi-Sura
Keng yoyilib shifobaxsh.
Solib devlarga qiron
Axuraga imonda
Mustahkam Ardvi Suraga,
Borliq ta'zimlariga
Loyiq go'zal daryoga
Va uning et-suyagi
Bordek haykal shakliga
Namozu ehsonlarga
Loyiq Ardvi Suraga
Yordamga doim shayman⁵
Iymon urug'i donni,
Uyda jonivor hayvonni
Iymonlilar hayotin
Boyluk, molu bisotin
Ma'murlik mamlakatini
Barakatli etguvchi
Ardvi-Sur-Anaxita!⁶

5. Ardvi barcha erlarning⁷
Zurriyodin bor etar,
Ayollarning onalik
Orzusin bisyor etar.
Ko'kragini vaqtida
To'ldiradi sut bilan.
Quchog'ini farzandi,
Ul qadami qut bilan.

6. Dunyolarga dong solgan
Kenglik ichra tengsizlik,
Dunyoning bori suvi

Bir bo'lsa teng kelmas lek.
Qudratli bir oqimir,
Xukarya cho'qqisidan
Vorukasha tomonga
Orziqib shoshib kelar

Minglab suvoriy qirq kun
Yo'l yursa-da o'tolmas
Mo'l yursa-da yetolmas⁹
8. Uning bitta tarmog'i

Sig'dirgan shu zaminni
Mahkam tutib turibman.
Tirik, o'lik... barini,
So'ngagi borning barin
Ko'k o'par biyk tog'larni,

Birla omon saqlarman
Onalar avaylagan
Gumonasin har doim.
So'ngra bir tomchi suvga
So'ngak, soch, et berarman,
Ichin butun etarman.
Oyoq-qo'l, tirnoq ila
Inson shaklin bitarman.
Mo'min, iymonlilarning
Kuchli fravarshilari
Yordam bermasa erdi
Menda poda bo'lmasdi.
Eng asl mol, eng yaxshi
Odamlarin bo'lmasdi.
Durudjga¹¹ kuch, hoqonlik,
Hamda barcha jonzotlar
Ustidan hukmronlik
Nasib bo'lgan bo'lardi.

13. Osmonu yer o'rtasida
Yolg'on ruhi joylashib,
Osmonu yer o'rtasida
Yolg'on bo'ladi g'olib
Mag'lub Muqaddas Ruhga
So'ng Yovuz ruh yo'l bermas.

14. Fravarshi, Xvarno
Yordamida Yer uzra
Buloq va manbalardan
Tinmay suvlar sharqirar
Fravarshilar sababchi
Yerda o'sar o't-o'lan
Qonib sof buloqlardan.
Fravarshilar va Xvarno
Shuhratu shavkatidan
Madad olib shamollar
Tuganmas buloqlardan
Osmonga bulut haydar.
15. Fravarshilar va Xvarno
Sharofati tufayli
Ayol bo'yida bo'lib
Ularning yordamida
Vaqt, oy kuni to'lib
Oson ko'zi yoriydi.
Ularning yorligi-la
Qunvar o'g'illik bo'lib.

16. Fravarshilar va Xvarno
Ulug'vorligi sabab
Er so'zamol tug'ilar.
Majlislarda nutqila
Aqlga muhtojlarga
So'zin uqtirar oson.
Hatto bedin Gaot Emani
Bahsda yengar beomon.
Fravarshi va Xvarno
Ulug'vorligi sabab
Quyosh adashmas yo'ldan.
Ular ulug'vorligi
Oyning yo'lin belgilar
Ular tufayli ko'kda
Yulduzlar o'z yo'lida

17. Beomon jangda ular
Yordamga yetib kelar.
Bu qudratga sazovor
Iymonlilar ruhlari.
Fravrashi ruhlari
Ichra, sodiq Zardusht,
Eng kuchli, eng qodiri
Dinga ilk bor o'rgatgan
Iymonlilar ruhidir.
So'ngra hali dunyoga
Kelmagan Saoshyantlar...

Mirsodiq ISHOQOV
tayyorladi.

FRAVARDIN ALQOVI

7. Vorukasha dengizin
Qirg'oqlari tebrananar
O'rtasida to'lqinlar
Osmonlarga intilar
Ardvi quyulgan chog'i
Ardvi yetishgan chog'i
Anohid⁸ kelgan chog'i
Unda minglab ko'rfaz bor
Ming-ming qator qo'ltiqlar
Minglab qo'sha irmoqlar
Uning har bir tarmog'in
Uning har bir irmog'in
Bo'ylash uchun arg'umoq

Yeti kishi oshadi
Qishin-yozin tinmaydi
Oqib tinim bilmaydi.¹⁰
9. Men ular ko'magida
Tutib turibman, Zardusht,
Axuraning keng Yerin,
Ulkan bepoyon yerin,
Sonsiz ezguliklar-la
To'la ushbu zaminni.
Bor tirik va bor jonsiz
Tanlarni ortib olgan,
Tog'larni, yaylovlarni,
Sersuv ko'l, daryolarni,

Namxush ko'k o'tlog'larni,
Qo'lda tutib turibman.

10. Kema erkin suzarlik
Daryo undan o'zarlik
Yerki but turli tuman
O'simliklar o'sarlik.
U panoh bori hayvon,
Va odamlar bariga
Hamda eran yurtlarni
U qiladir himoyat.

11. Fravarshilar shavkati
Va Xvarno ko'magi



MUQADDAS AVESTO IZIDAN

Aziz bolajonlar! Bilasizmi, bu yilimiz qanday ulug'vor va sharofatli yil? Avvalo Respublikamiz istiqbolining o'n yilligini kutib olamiz. So'ng ma'naviyatimiz va tariximizning ilk yozma yodgorligi «Avesto» kitobining 2700 yilligi nishonlanadi. Buni qarangi, «Avesto» yubileyini o'tkazish haqida dunyoda eng obro'li xalqaro tashkilot YUNESKO maxsus qaror chiqargan. Shu munosabat bilan mamlakatimizda qizg'in tayyorgarlik ishlari bormoqda.

Jumladan, «Avesto»ning juda qadimiy nusxasi hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Qadimgi yozma yodgorliklar bilimdoni, tarix fanlari doktori, avestoshunos olim Mirsodiq Is'hoqovning «Avesto»dan qilgan izohli tarjimalari bunga guvohdir. Shu tarjimalardan sizlarga namunalar berishga qaror qildik. Bu sahifamizda «Fravardin alqovi» nomli parchani o'qiysiz. «Avesto»xonlik sizlarga ma'qul bo'lib qolsa, bu kitobning boshqa qismlaridan ham berib borishga harakat qilamiz. Bu alqov «Avesto» Yashtlarning o'n uchinchi bo'lib, «Fravardin Yasht» mazmuni va asotiriy asoslariga ko'ra eng qadimiy matn deb qaraladi.

Fravardin alqovi o'lgan ota-bobolar ruhiga sig'inish an'analardan o'sib chiqqan. O'lganlar u dunyoda yashashda davom etadi va ruhlari o'z avlodlari va qavmlariga yordam berib turadi deb tushunishgan. Ruhtar esa fravarshi deyilgan. Yana bir qiziq tomoni fravarshilar odamlariga emas, insonni o'ragan barcha tabiat hodisalarida, jumladan, tog'lar, daryolar, ko'llar, o'rmonlar va boshqalarda ham ruh borligiga ishonishgan.

¹ Fravarshilar odamlarga ezgu ishlarda yordam berib turadi, ular doimo o'tganlarning avlodlarini himoya qiladi, deb hisoblangan. Xalqimizda o'tgan ajdodlar ruhi (arvohlari)ga nisbatan alohida hurmat va ehtiyotli hamda umidli qarash an'anasi shu bilan bog'liq: «Arvohlar yor, pirlar madodkor bo'lsin».

² «Avesto» Yer kurrasini yumaloq (tuxumsimon) deb tasvirlaydi. Ko'p asrlar keyin tushunilgan haqiqatning asl ildizini dunyoda birinchi bo'lib qadimiy ajdodlarimiz aytib ketishgan.

³ Bu o'rinda «Avesto» yer yuzasini yetti

iqlim qurshovida deb Yerni uch qismga ajratish sovuq va qorong'ulik - shimol, Axura Mazda yaratgan yer jannat zamin Aryanam Vayeju hamda, «Avesto dunyosi»dan janubdagi yer bor deb tushunishdan kelib chiqqan. Agar shunday taxmin to'g'ri bo'lsa, o'z-o'zidan Turondan janubdagi o'lkalarga Zardusht dini keyinroq kirib borgan, deyishga asos bo'la oladi.

⁴ Osmonning cheti yo'q deb tasavvur qilish Yerning yumaloqligi tushunchasini to'ldirib turadi.

⁵ Bu lavhada Ardvi Suraning ma'buda

qiyofasida haykal qilib yasab sig'inilgan davr qoldig'i aks etgan, deb o'ylaymiz.

⁶ Anaxita «pokiza» ma'nosiga ega sifat bo'lib, Ardvi Sura ismi bilan qo'shib qo'llanadi.

⁷ Anohid-Anoxita. Ardvi Sura ma'budaning «pokiza, ilohiy soflik» ma'nosidagi laqabi...

⁸ Bu manzara Amudaryoning orolga quyilishiga mos keladi.

⁹ Bu lavha Ardvi Sura alqovining 2-5 betlari bilan o'xshash.

¹⁰ «Avesto»da jonzotlar 5 toifaga

bo'linadi: suvda yashovchilar, yer ostida yashovchilar, osmonda yashovchilar, yer ustida yashovchilar va nihoyat, uy hayvonlari. Uy hayvonlari bu o'rinda Gav deb umumlashtirilgan.

Durujd eng ulug' gunoh. «Yolg'on»ning Avestodagi nomi Drauganing bir shakli. «Hozir» bu so'z tojik-fors tillarida «durug'» kabi turdosh ma'noga ega. Lekin Zardushtiylar Durudjni «qabih dev» timsoli deb bilishgan va Axriman yaratgan yovuzliklar qatorida shaxslashtirib, tasavvur etishgan. Durudjnana faqat ahloqiy, balki falsafiy ijtimoiy tushuncha.

ШУ АЗИЗ ВАТАН...

барчамизники! Ҳа, муҳтарам юртбошимиз элати ва миллатидан қатъий назар, шу муқаддас маскан ҳамма учун баробар эканлигини бежиз таъкидламаганлар. Чунки шу озод ва обод бўлиб бораётган муқаддас диёримиз мустақиллигини мустаҳкамлашда ҳар бир фуқаро ўзининг муносиб фарзандлик улушини қўшмоқда.

- Санда юздан зиёд миллат ва элат вакиллари истиқомат қилишади. Мен бугун сенинг садоқатли ва саодатли қизларингдан бири - Низия опа Люмонова ҳақида ҳикоя қилмоқчиман. Сен у кишини танийсан, тан олгансан ва маҳоратига тан беражаксан, азиз Она Ватан!

“МЕН НЕЧУН СЕВАМАН ЎЗБЕКИСТОННИ?”

Ардокли шоиримиз Ўзбекистон Қаҳрамони Абдулла Орипов мазкур жумла билан дил оғриғини баён этганларида собиқ мустабид тузумнинг раҳнамою ҳукмдорлари “Нега сен совет мамлакатини эмас, ўз ерингни кўкларга кўтаряпсан?” дея қасди-басдига олиб, сўроққа тутган эканлар. Абдулла ака ўзларининг “Кўрган-кечирганларим” деб номланган хотираларида шундай дейдилар: “Гап шундаки, Ватанинг бутун Совет Иттифоқи деб ўқдириб турилган бир пайтда, Ўзбекистон нима бўлди экан?”, деган савол юрагимнинг тубида пайдо бўлди...

Ўшанда Она тили, Она Ватани камситилган Низия опанинг болалиги асал бўлмаган, гулу гулзорлар ичидан ўтмаган. Хушманзара Кўрим ярим оролидан қатагон туфайли бадарға қилинган беш ёшли мурғак қалб жароҳатларига у Ўзбекистондан шифо топди - халқимиз бир бурда нонини улардан аямади, бағрига олиб, меҳри билан иситди, вояга етказди. Ҳозирда у киши Ўзбекистон телевидениесининг таниқли устоз режиссёрларидан бири Низия опа “Мен нечун севаман Ўзбекистонни?” саволига сидқидилдан меҳнат қилиб, юрак амри измида фидойилик билан амалий жавоб бериб келмоқда.

БАРОН МЮНХАУЗЕННИНГ УМР ЙЎЛДОШИ

Заҳматкаш бу аёл кимнинг умр йўлдоши, биласизми? Ана, билмайсиз-да. Бошингизни оғритмай айта қолай: феълан қизиққон, оқибатли ва меҳрибон бу опамиз “Барон Мюнхаузеннинг саргузаштлари” мультфильмининг бош қаҳрамонига овоз берган Дияс ака Раҳматовнинг елкадоши, юракдош оилалари! Зўр-а?

Икки моҳир ижодкор Низия опа ва Дияс ака мени эски кадронлардек кутиб олдилар.

Ана энди худди шу учрашув тафсилотини шариллаб айтиб берай. Аввалига Низия опа иккаламиз ўша мультфильм тафсилотларини эслаб роса кулишдик. Аммо-лекин роса мириқдим-да! Бир вақт денг, барон Мюнхаузен жаноблари қовоқ уюб кириб қолсалар бўладими?! Ийи, уйдаликларини билмабман-а! “Ғийбат”имиз қулоқларига етгани аниқ. - Ана, “бўларим бўлди энди” деб юракни ҳовучлаб турсам... кулиб юбордилар!

- Яхши эмас, яхши эмас! Сиз ким ҳақида ёзмоқчисиз? Низияхоним ҳақидами ёки барон Мюнхаузен ҳақидами?

- Унис ҳақида ҳам, буниси ҳақида ҳам! - дедилар мен. - Ахир иккаламиз ҳам телевидениеда кўпроқ кўйлак “йиртган”сизлар-да!

- Йўқ, менинг “барон” бўлишим учун пул чатоқроқ... Опангиз эса бой - 150 дан ортиқ мультфильмни дубляж қилганлар. “Маърифат”нинг энг жонкуяри! Иш деса уйни ҳам унутиб юборади. Нафақага чиқиб ҳам тиниб-тинчимайди.

Низия опага қарайман. У киши менинг нигоҳимни тушуниб, шундай дедилар:

- Мюнхаузен жаноблари кинода шумроқлару, лекин ҳаётда ўта камтарлар.

НИЗИЯ ОПАНИНГ 1 СЕНТЯБРИ ЭНГ ҚУТЛУҒ КУН!

Дияс ака кўшни хонага кириб кетдилар.

- Бу кун мен учун кўша-кўша қувончлар кун. Энг асосийси - Мустақилликка эришганимиз. Кейингилари - 1961 йилнинг 1 сентябридан Ёш томошабинлар театрида, 1963 йилнинг 1 сентяб-

сизга устозлик қилган?

- Набижон ака Собиржонов! Мен у кишидан кўрсатув вақтини аниқлаш - “етти ўлчаб, бир кесишни” ўргандим. Ўзингиз ҳам журналист сифатида телевидениеда вақтнинг қанчалик қадрла-нишини яхши тушунасиз.

- Албатта-да. Шунинг учун ҳам уйда эканлигингизни эшитибоқ - шу ёққа филладим.

- Оёқ-қўли чаққон мухбир укамдан айланай! - дедилар Низия опа жилмайиб.

- МУСТАҚИЛЛИК - НОЁБ НЕЪМАТ

KADR ORTIDAGI KADR



ридан эса Жиззах вилоят театрида иш бошлаганим. Болалар актёри бўлганим мультфильм қаҳрамонлари ички дунёсини англашимда ёрдам берди. Катталар учун спектаклларда роль ўйнаганим эса, актёрлар билан ишлашимда қўл келди. 1966 йилнинг 1 сентябрида эса Ўзбекистон телевидениесига иш бошлаганман. Ана шунақа, азизим, мен учун бу кун ширин хотиралар ва мағрур-улкан қувончнинг кони!

- Мустақиллик сизга нима берди? - дейман қувлик билан.

- У эмас, мен бутун юрагимни, ижодимни унга бағишлашим керак ва зарур деб ҳисоблайман. Шу боис ҳам уйда кам бўламан - “Маърифат” тахририятидаги ҳар бир янгиликка ўз ҳиссамни қўшсам дейман.

“ТЕТАПОЯ” ХОТИРАЛАРИ

- ТВдаги илк “тетаянгизда” ким


ШЕЪР ҲАҚИДА ШЕЪР

Шеър ҳижрони жуда ёмон,
Висоли-чи, жонга роҳат.
Шеър ҳижрони қўймас омон,
Висоли-чи, кўп фароғат.

Шеър ёзсангиз биласиз-да,
Чексиз қувонч шодлигини.
Шунда сиз ҳис қиласиз-да,
Кўнглингизга ёдлигини.

Гар сиз ёзган ушбу шеърлар,
Қадрланмас ўз вақтида.
Лекин бир кун келиб дерлар,
“Шоир сўзлар шеър сатҳида.”

Шеър сатҳида сузмоқ учун,
Истеъдод ва меҳнат керак.
Гўзал жумла тузмоқ учун,
Шеър ишқида ёнсин юрак.



ОНА

Жаннат оналарнинг пойида эрур,
Хизматига шайдир фаришталар ҳам,
Онанинг дуосин олмоқлик бахтдир,
Қарғишин олмасин ҳеч инсон ҳеч дам.

АЁЛ

Аёл, деса барча мавжудот,
Табассум-ла кулиб боқади.
Аёл, деса тоғу тош, дарё,
Жўшқин сой ҳам секин оқади.

ТУН

Осмон сокин, юлдузларга бой,
Майин эсар енгил шаббода.
Кўкда бақиб турар тўлин ой,
Бундайин тун йўқдир дунёда.



М. ҲАКИМОВА,
8- синф ўқувчиси.

TV fidozilari

Ҳар бир жумла, ҳар бир сўз бола руҳига моҳ бўлиши керак. Ҳозирги вундеркинлар ўта зийрак. Сохталикни пайқайди.

- Тўғри, алдагани бола яхши, деганлар адашишади, - дейман. - Қани энди ҳамма ҳам сизга ўхшаса! Низия опа, энг биринчи дубляж қилган мультфильмингиз қайси эди?

- Эсимда: 1989 йили ўзбек тилига давлат мақоми берилган кунгиз зудлик билан Диёс акангиз ва Мадина Мухторовага “Шу бугуннинг ўзида “Булутлар” мультфильмига овоз берасизлар, уни ўзбекчалаштираман” деб қолишди. Мени режиссёр этиб тайинлашди. Ҳайри опа Фуломова шунга ҳам таржимонлик, ҳам муҳаррирлик қилдилар. Шу кун мультфильм эфирга узатилди.

- Ажой-йиб иш бўлган экан-да! - дейман тўлқинланиб. - Ҳақиқий байрам! Кейин-чи?

- Кейин эса “Алиса сеҳрларлар мамлакатига”, “Ярим давлат” каби мультфильмларни дубляж қилдик.

“КАПРИЗНИ” АЁЛ

- Ҳозир “Маърифат” Бош муҳарририятида ишляясиз. Ишда ҳам шундай “очиқ-сочиқ” мисиз?

- Жудаям капризниман. Ишим шуни тақазо этади.

- Шогирдларингиз кўп бўлса керак?

- Улар кўп. Қайси бирини айтсам экан? Келинг, яхшиси, ҳам шогирдим, ҳам устозим бўлган бир болани айтай.

- Не, шунақаси ҳам бўладими?

Ким экан у?

- Хайрулла Хусанов-да! У менга “Кино, Кино, Кино” кўрсатувини тайёрлашда жуда кўп ёрдам берган, маслаҳатларини аямаган. Ўша кунлар ҳам ҳеч эсимдан чиқмайди. Менга ҳам оталик, ҳам устозлик қилган Тошхўжа Хўжаевни ҳам эҳтиром билан тилга олиб ўтишни бурчим деб ҳисоблайман.

- Шогирдлар...

- Айтдим-ку, улар кўп деб!

Тижорат редакциясидан Эркин Нишоновни, ТТВ бош режиссёри Ислон Собировни ва айниқса Қаҳрамон Валиев энг сеvimли шогирдларимдан ҳисобланишади.

РАСМГА ТУШМАГАН БУВИ

- Шундай бувижониси бор невараларингизга ҳавасим келади, - дейман онага.

- Мен невараларимга қаттиқ тураман. Ўта “маданий” кийиниб, бўяниб юришларига йўл қўймайман. Удудман, улусдан чиқма, дейман.

- Ҳақ гап. Талтайтириш - зиён.

- У кун битта неварам “Бизнинг оила” мавзуда реферат ёзибди. Мени роса мақтабди. Ўртоқлари: “Наҳотки? Бирга тушган расминглар борми?” - дейишибди.

Мен эса бирор маротаба улар билан расмга тушмаганман. Ўзим расмга тушишни унчалик ёқтиравермайман.

- Чатоқ экан-да... Ўшанақа расми мақолам билан бермоқчи эдик. Барибир, невараларингиз билан расмга тушиб қўйинг. Кўриб, эслаб, фахрланиб юришади.

- Майли-да. Мустақиллик майдонига олиб бориб, расмга тушганим бўлсин!

- Мен эса сизга, Дияс ака ва умуман, оилангизга мустақиллик экинларидан кўпроқ баҳраманд бўлишингизни тилайман. Ўзбекистоним, дея чеккан заҳматкашларингиз рўшнолик нурларига қорийсин.

Соғ бўлинг, Низия опа.

Собир ЖАББОР,
Фаридун АХРОРОВ.

Суратда устоз режиссёр Низия Люмонова кўрсатувини бошқараётган пайт (чандан 3чи).

(Davomi. Boshi o'tgan
sonlarda)

SAROY MULK XONIM

Ikki amir o'rtasidagi so'nggi urush Balxning olinishi va Husaynning o'ldirilishi bilan tugadi. Xalq endi yengil nafas oldi. Mo'g'ullarni yurtdan quvgan va o'zaro nizolar, qirg'in-barotlarga chek qo'ygan Temurbek xalq tan olgan chin ma'nodagi yo'lboshchiga aylandi.

Amiru beklar ham, mingboshidan tortib oddiy sipohgacha, dehqonlardan tortib hunarmandlarga - hamma-hamma undan xursand.

Temurbek Balxda ochko'z va xasis Husayn to'plagan boy xazinani lashkarga va ulamolarga, ayniqsa Naqshbandiyalar tariqati vakillariga tarqatdi.


Amir Husayn haramidagi go'zal ayollar sarkarda-yu bahodirlarga tuhfa qilindi. Temurbek safdoshlariga hadya qilgan kanizaklarni birma-bir ko'zdan kechirarkan o'ziga loyiq ayolni kutdi. Bu ayol Husayn haramidagi eng go'zal va oqila Saroymulkxonim ekanini u yaxshi bilardi.

Temurbek qarshisida hozir bo'lgan ayolga diqqat bilan razm soldi. U nimasi bilandir marhuma O'ljoyni eslatdi.

- Oyog'imga suv quying, - dedi Temurbek unga. Ayolning mag'rur nigohida o't chaqnadi.

- Men hoqon qizimen, cho'ri emasmen! Bunday xo'rlikdan o'limni afzal bilurmen...

Uning qo'lida xanjar



Hamdam SODIQOV

shariat panohi va musulmonlar xaloskori sifatida ulug'lay boshlashdi. Savdo-tijorat ahli esa endi karvon yo'llari bexatar, bozorlar osoyishta bo'ladi deya Temurbekni yagona mutloq hukmdor bo'lishini istab, unga boyliklari-yu karvonlari xizmatini taklif qilishdi. Dehqonlar esa yangi yerlarni o'zlashtirish, qaqrab yotgan ekinzorlarga suv chiqarish uchun osoyishtalik barqaror bo'lishini tilashdi. Hunarmandlar ham shunday niyatda edilar. Qattiqqo'l, adolatli va baquvvat hokimiyat zarur! Bunga faqat Temurbekkina qodir!

Vaziyatning o'zi ham uni Chig'atoy taxtini egallashga undar edi. Ammo

YETTI IQLIM HUKMDORI

yaltilladi. Lekin shu zahoti xos navkarlardan biri undan xanjarni tortib oldi.

- Chindan ham siz xon qizi ekansiz. Yo'l bering Xonzodaga! - buyurdi Temurbek.

Qozonxon qizi, Husayn haramining yulduzi Saroymulkxonim unga mehrlig nigoh tashlab saf tortgan navkarlar orasidan o'ziga yo'l ochdi. Temurbek uning ortidan havas bilan boqdi. Bu ayol endi uniki bo'ladi. Hayotining yulduzi bo'ladi.

TEMURBEKNING G'OYASI

Munajjimlar Temurbek Jadda yulduzi panohida ekanligini, bu esa uzoq umr, davlat va qudratdan darak berishi, yetti iqlim unga tobe bo'lishini bashorat qilishdi. Darveshlar, qalandarlar hamma yerda uni Ollohning yerdagi elchisi, Islom qilichi,

uzoq ikkilanishlar va chuqur o'y-mulohazalardan so'ng boshqacha bir qarorga keldi. U umrining qirqinchi bahori yaqinlashgan kezda faoliyati va bosib o'tgan hayot yo'lga xolisona nigoh tashladi. U umrining betakror yoshlik faslini yurtini mo'g'ullar zulmidan ozod qilish uchun kurashga sarfladi. Endi esa Chig'atoy ulusi hukmi bitgan pallada yangi sulolaga asos solmoq lozim. Chingizxon idorasi, tartib-qoidalari va udumlariga barham berish fursati yetdi. Chig'atoy taxti unga kerak emas. Chunki u mo'g'ul hukmronligi ramzidir. Shunday qilish lozimki, Chingizu-Chig'atoy avlodlari qo'g'irchoq hukmdorlarga aylansin va chin hokim o'zi va uning vorislari temuriylar bo'lsin!

(Davomi bor).

(Davomi. Boshi o'tgan
sonlarda)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "TAHOLOT" YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATINING DASTURI

II. MA'NAVYI- MA'RIFIY SOHADA

1. Ajdodlarimizning ibratli hayoti, yurtimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi jasoratlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar misolida, zamonaviy bilimlarni egallash orqali yoshlarning qalbi va ongiga «Vatan menga nima berdi deb emas, men o'zim xalqim, Vatanim uchun nima qilmoqdaman», «Vatan - yagonadir, Vatan - bittadir» degan qarashlarni, «Bu davlat meniki bo'lsa, shu yurt meniki bo'lsa, uning farovonligi, yorug' istiqboli uchun, avvalo o'zim kurashishim kerak» degan haqiqatni singdirish.

Bu vazifani amalga oshirishda ta'sirchan ma'naviy-ma'rifiy usullar, ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish. Harakat a'zolarining o'qishda, ishda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda barcha yoshlarga namuna bo'lishiga erishish.

2. Avvalo, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz, mumtoz allomalimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy merosimizni, betakror madaniyatimizni, shuningdek, bugungi dunyo taraqqiyotida beqiyos o'rin tutayotgan ilm-fan va texnika taraqqiyotini, zamonaviy, falsafiy qarashlarni har tomonlama chuqur o'rganish. Ularni o'zaro uyg'unlashtirgan holda yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qildirish.

Yoshlarning diniy bilim va ma'lumotlarga ega bo'lishlariga ko'maklashish, ularni har bir ma'rifatli inson bilishi kerak bo'lgan hayotiy zarur tushunchalar - boshqa barcha diniy konfessiyalarga hurmat bilan qarash, dinitis bag'rikenglik, jamiyatda diniy ayirmachilikka yo'l qo'ymaslik, dunyoviy va diniy qarash va aqidalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga yo'l bermaslik ruhida tarbiyalash.

3. Tinch hayotimizni buzishga, bizni o'z tanlagan yo'limizdan qaytarishga urinayotgan turli zararli g'oya va mafkuralarga, vayronkor kuchlarga qarshi qat'iyat bilan kurash olib borish, yoshlarda tinchlikni sevish va qadrlash madaniyatini shakllantirish. Mehnat jamoalarida, maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida sog'lom turmush tarzi talablariga mos tadbirlar dasturini ishlab chiqish va hayotga tadbir etish.

4. Tajovuzkor millatchilikka, har qanday ko'rinishdagi separtizm va ekstremizmga qarshi kurashish hamda ular qanday niqoblar ostida, qanday nojo'ya, yovuz, g'arazli maqsadlarni ko'zlab harakat qilayotganini fosh etish, shu tariqa yosh avlodni bunday balo-qazolardan asrashda faollik ko'rsatish.

5. Yosh iste'dod egalarning ijodiy, ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash, Zulfiya, «Nihol» mukofotlari, «Umid» jamg'armasi grantlari hamda davlat tomonidan yoshlarga ajratiladigan turli yordam va imtiyozlardan foydalanishga adolat mezoniga amal qilish.

6. Yoshlar va o'smirlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, jinoyatchilik, diniy ekstremizm, g'iyohvandlik, loqaydlik kabi turli illatlarga qarshi kurashda Harakatning ta'sirchan kuchga aylanishiga erishish.

7. Jamiyatimizdagi tinchlik va osoyishtalik muhitining, bunyodkorlik ishlarining garovi bo'lgan millatlararo totuvlik va do'stlikni yanada mustahkamlashga hissa qo'shish.

8. Vatanimizning tabiiy boyliklarini, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida yoshlar o'rtasida ekologik tarbiya ishlarini kuchaytirish.

(Davomi bor).

Otalar yozadi

ISTASANG

Pokiza et sen hayotni davri-davron istasang,
Nozu ne'matlarga to'lgan bog'u bo'ston istasang.
Bo'l halol sen avvalo umri farovon istasang,
Xasta dilga mehribon bo'l, do'st-qadrdon istasang.

Yaxshilikda ko'p fazilat bor, yomondin qil hazar,
Bu sinov dunyosiga keldingu bo'lma bexabar.
Shu sababdin aytamankim, yetmasin elga zarar,
Yaxshilarga hamnafas bo'l, sen sharaf-shon istasang.

Bo'lmagin g'ofil sira, xalq nazaridan uzoq ham,
Toyriursan bir kun albat nojo'ya qo'ysang qadam.
Kimki ibrat olmas oxir o'chgusi bir misli sham,
Yaxshilik qil, kelsa qo'ldan o'zni sulton istasang.

Men Rasuliy yaxshilik yo'lida javlon ayladim,
Dilni haqqa basta etdim, rohati jon ayladi.
Dushmanimni mot etib, yer birla yakson ayladim,
Bo'lma el-yurtdan judo o'zingni shodmon istasang.



Rozi ermasman yurtimga shaydo bo'lmasang,
Yaxshi-yaxshi so'zlaringni aytib zebo bo'lmasang.

Xalqu avlodim uchun yoqimli she'r aytgin mudom,
Doimo sayrab turib, bulbuli go'yo bo'lmasang.

Kuylaring har bandidan shod bo'lsin do'stlar doimo,
Chin muhabbat birla kuylab elga oshno bo'lmasang.

Yaxshilardan shod erur elim yomondan or etar,
Baytu dostonlar to'qib monandi daryo bo'lmasang.

Xalqimiz sen birla bizdan bo'lmasin hech norizo,
Tark etib to'g'am-alamni mulki dunyo bo'lmasang.

Niyatim pokdir Rasuliy, yurtimiz bo'lsin omon,
Istagim barpo etib, garchandi mullo bo'lmasang.

Sulton RASULIY

YAXSHILIK QIL

Yaxshilik qil, yaxshilik qil ko'p g'animat ushbu dam,
Kim yomonlig'dan topibdir e'tiborni muhtaram.
Yaxshilarni bosgan izi bu sharaf shondir, ukam,
Toki borsan bu jahonda qoldirib ket yaxshi nom.

Chorvadoru paxtakorimni qarang mardu asil,
Mehnati birla jahonga dong taratgan, yuz qizil.
Ko'ngli pokdir paxtasidan, doimo yozday fasl,
Ibrat olib oy quyoshdan yaxshi yo'lga qo'y qadam.

Dilozor nokas kishidan kimni ko'ngli bo'ldi shod,
Yo biror mushkul ishingga ul bo'lolmaydir najot.
Bunday nomarddan qoching siz yaxshiga bo'ling qanot,
Do'st bilan obod diyorim beg'ubor, lavha qalam.

Sen Rasuliy yaxshilik yo'lida qurbon san mudom,
Pashshaga bermay ozor deysan ishim etsun davom.
Sof niyatlarni qilib dildan to'qiysan xush kalom,
Mehnatparvar mard yigit-qizlar yuzi bog'i eram.



SHAYDO BO'LMASANG

(Boshi o'lgan sonda)

«HALALA-HO'P»**ANSAMBLI**

Universitetda uchinchi kurs talabasi edik. Kursdosh og'aynim Omon Hatamov ikkimizni Toshkentdagi maxsus maktabga, hindiy tili mutaxassislarini yetishmayotganligi uchunmi, o'qituvchi qilib yuborishdi. Tushgacha domlalarimizdan saboq olardik, undan so'ng har kuni bolalarga to'rt-besh soatdan dars berib, o'zimiz domlalik qilardik.

Maktab jamoasi juda ahil, ajoyib kishilardan iborat ekan. Direktor Bo'rixo'ja Alimov dehqonsifat, ko'nglida kiri yo'q hammaga barobar odam. Gaplashganda o'zi yo'q qorinni namoyish qilmoqchidagi «kekkeyib» tursa-da, kichikka aka, kattaga uka. Odam ajratmaydi. Bizlarni ham o'z bag'riga oldi. Ba'zan yaqin oshnag'aynilarday «sir»lashib qolardik.

Hammaning ko'zi bizlarda edi. O'zimiz ham yosh, kelishgan yigitchalar edik-da. Uning ustiga hind kino-qo'shiqlariga, bizning kasb-ko'rimiz - hind tiliga ishqivozlik eng avjga chiqqan davr edi.

Shaharning eski mahallalaridagi xarobgina hovlilardan birida ijaraga yashardik. Shunga yarasha hayotimiz «It yotish, Mirza turish» bo'lsa ham, olihtagarchilikni o'mniga qo'yardik. Doim po'rim kiyinardik. Ayniqsa poyafzalimizni erinmasdan yaltillatardik. Omon «do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi» deb bejiz aytmasdi... O'zi ham jamoaning uchdan ikki qismi xotin-qizlardan iborat, oshnamning gapiga qaraganda «jannatga tushib qolganday» edik...

Omon birinchi oyilgining o'ziga Yugoslaviyaning eng qimmat turadigan uchta tufisini sotib oldi. Men ham shunday qildim.

Bundoq paytlardan yana nimalardir qilgung, o'zingni ko'rsatgung kelib qoladi: qarasak, maktab o'quvchilari ichida iqtidorli, san'atning turli sohalariga qiziqadiganlar ko'p ekan...

O'sha paytlar havaskorlik to'garaklari eng ommalashgan, korxonalar, turli madaniy-ma'rifiy muassasalar, tashkilotlarning ta'lim-tarbiya sohasida olib borayotgan mavqei ularning mana shu sohadagi yutuqlariga qarab baholanardi.

Biz ham o'zbek-hind kuy va qo'shiqlaridan iborat Baynalmilal to'garak tuzmoqchi bo'ldik. Bu fikr maktab musiqa sabog'i o'qituvchisi G'ulomjoniga ham ma'qul tushdi.

G'ulomjonning o'zi filarmoniyaning xor-kapello

bo'limida solist bo'lib qatnashar, bizga o'xshab har kuni bo'lmasa ham, haftada uch bor maktabga kelib, dars berardi.

Kamina musiqa-bilim yurtini bitirganlardan emasmi, u bilan osongina til topishib olgandik.

G'ulomjon hazil-huzulni qoyillatadigan, o'zimiz qatori yigit bo'lganidan, Omonga ham yoqib qolgandi.

- Filarmoniyada solist bo'lsangiz, qaysi qo'shiqni ijro etasiz? - deya so'rab qoldim bir kuni G'ulomjondan.

- «Hallala-ho'p»!

- Bu nima degani?

- «Hallala-ho'p» deb turaveraman. Bitta mana shu «qo'shiq» bilan televizorga ham uch marta chiqqanman. E, buni

SHAYTON MALAYLARI

tarixi qiziq....

G'ulomjonning aytishicha, u artist bo'lish orzusunda Qashqadaryoning olis qishlog'idan Toshkentga keladi. Rus tilidan imtihon topshirolmay «yiqiladi», qishlog'iga qaytib borishdan nomus qiladi. Chunki u maktab sahnasida qo'yiladigan ko'pgina spektakllarda bosh rollarni ijro etib, hammaning og'ziga tushgan, ko'pchilik hamqishloqlari qatori albatta artistlikka o'qishga kirishi muqarrarligiga o'zi ham ishongandi... Shunday qilib, katta shaharda qolib, g'isht quyadi, yer chopadi, suvoqchiga yordamchi bo'lib ishlaydi, xullas

o'ng kelgan ishni bajarib yuraveradi. Bir kuni nomi taniqli artistning shahardan chetraqdagi dala-bog'iga yer chopishga borib, u kishi bilan tanishib qoladi-da, ushalmay qolgan orzusini aytadi.

- Men tinglayotgan ovozingizda nimadir bor. Qani, manavu naqoratni qaytaringchi! - deydi-da, mashhur artist ko'zlarini yumib, yelkasini qoplab olgan sochlarini silkitib, «Figaro-o, Figaro-o»lab baram berilib kuylab ketadiki, Sattor aka, Sattor aka, deb arang o'ziga keltirib oladi.

Xullas, bu sinov G'ulomjon uchun uncha qiyin kechmaydi - «Figaro»ni ovozini pastroq qo'yib, kuylab beradi.

- Qaddi bastingiz joyida,

ovozingiz ham nichevo, -deydi mardikor yollagan mashhur artist va qo'shib qo'yadi, - Ertadan ketmon chopishni tashlaysiz, filarmoniyaga borasiz. Bichiqliklar sizga moslab kiyim tikishadi. Qop-qora kostyum, oppoq ko'ylak, uning yoqasiga kapalaknuxsa «galstuk» taqib olsangiz, sahnamizda yulduz bo'lib porlaysiz!.. O, azizim «Figaro»ni yana bir qaytaring.

- «Figaro-o, figaro-o-o» deyverdim. Bo'lajak ustozim uzun sochlarini silkitib, boshini yerga qadab, sarak-sarak qilib tinglayverdi. Bundoq qarasam, yaqin-atrof qo'shnilaridan ikki-uchtasi devor osha bizga qarab turibdi... Lekin bu

mashqqa borib kelaman. Qolgan vaqtim maktabda o'tadi. Katta ilmiy bo'lim mudirimiz Raisa Ginnatullayevna siz respublika filarmoniyasining solistisiz, tajribalaringiz sinfning o'zida qolib ketyapti, maktab sahnasiga olib chiqing, jamoat ishlarida qatnashing, deya dakki bergani-bergan. Endi shu ishga birgalashib qo'lursak yaxshi bo'lardi. Omborda butun bir orkestrga yetadigan musiqa asboblari chang bosib yotibdi, - deb qo'ydi G'ulomjon bizning fikrimizni qo'llagan bo'lib.

- Musiqa asboblari nima keragi bor,

kafello tuzaqolamiz! Mana, o'zingiz «Hallala-ho'p» deb turasiz! - hazillashdi Omon.

- Nomini ham «Hallala-ho'p» ansambli deb qo'yamiz. Kim bilib o'tiribdi, bu so'z nimaligini! - deya men qo'shimcha qildim.

O'rtada yengil kulgi ko'tarildi...

Mingdan ziyod yuqori sinf o'quvchilari orasidan yigirmaga yaqin eng iqtidorlisini tanlab oldik. Dasturi o'zbek va hind tillarida ijro etiladigan kuy, qo'shiq, xandalardan iborat «Saaz or avaz» («Soz va ovoz») nomli maktab havaskorlik to'garagi tuzdik. Bu nomning o'zimizgagina ma'lum - ovoz sizdan, soz-hatti-harakati bizdan degan ramziy ma'nosi bor edi. Ya'ni, ombordan olib chiqilgan chirmanda, baraban, rubob, gitara kabi cholg'u asboblari tutgan olti nafar «sozanda» magnit lentasidan taralayotgan ohangga monand maqom bilan «jo'r» bo'ladilar.

Namoyish etishga mo'ljallangan dasturimiz o'zining rang-barangligi, kutilmagan «tasodiflar»ga boyligi bilan ajralib turardi. To'lan Qo'ziyoyev tomondan to'garagimiz uchun maxsus yozib berilgan «qaynona-kelin orasidagi mojar» tafsilotini doka ro'mol o'rab, atlas ko'ylak kiygan... yigitlar ijro etishar, ular dialoglarni o'zbek ham hindiy tillarida barobar qoyillatishardi.

Xoh muzika, xoh raqs bo'lsin, har bir sahna o'yini ustida oylab erinmasdan mashq o'tkazardik, ayniqsa ularni «hayotiy» chiqishiga katta e'tibor berardik. Chunonchi, «Bobik» intervyusidagi olifta qiz (Lola Hatamova) kuchukcha

Dadaxon NURIY

yetaklagan bo'lsa, echki soqol «shilqim yigit» (Nig'mat Abdullayev) yon qo'shnilarini - choyxonachi Hoshimjon akaning echkisini bir-ikki soatga so'rab, sahnaga yetaklab chiqardi. «Kaptarvoz» (Bakil Vahobov)da esa hammayoqni kaptar bosib ketardi.

G'ulomjon «Figaro»ni ijro etish uchun filarmoniyadan qaysidir dirijorga kichik kelib qolgan pingvin nusxa libosni o'ziga moslashtirib olgandi.

Mashqlar ko'proq shanba, yakshanba kunlari maktabda qorovul Ravshan akadan boshqa hech kim qolmagan kechki payt o'tkazilar, chol eshiklarni tambalay qo'yib, zal etagidan tomoshabinlik qilardi. Doim nimadandir norozi, «to'polonchi» bolalardan ham. Ularni tarbiyalay olmayotgan o'qituvchilardan ham xafaligini ochiq-oydin aytaveradigan fe'li tor bu odam avvaliga shuyam ish bo'ptimi deganday ko'p o'tirolmay, chiqib ketardi... Bora-bora chehrasi ochiladigan, kursining suyanchig'iga mushtlab qah-qah urib kuladigan bo'ldi. Hatto bizga bir kuni «Bu shaytonning malaylari balo-ku! To'polonchi bolalardan ham shunday hunar chiqarkan-da, balo-ku! Shularni yo'lga solgan sizlarga qoyil» deya bir piyoladan issiq choy quyib berdi... Shu-shu bo'ldi-yu ansamblimiz peshonasiga «Shayton malaylari» degan nom dumaloqlab otilgan loyday yopishdi qoldi... Lekin biz uni o'z nomi bilan atardik.

«Soz va ovoz»ning birinchi premyerasi Yangi yil arafasida bo'ldi. Unga mashhur artist, G'ulomjonning ustoz Sattor aka ham taklif etildi.

U kishi o'quvchilarning mahoratiga qoyil qolib «professional» deya baho berdi.

Bundan yayrab ketgan direktorimiz Bo'rixo'ja aka sahnaga chiqib kelib, avvalo Sattor akaga vaqt topib tashrif buyurganligi uchun maktab jamoasi nomidan minnatdorlik bildirdi, so'ng qorinni chiqargancha Nig'matga dedi:

- Hoy, Abdullayev, bugungi tadbirda aktiv ishtirok etganliging uchun o'tgan hafta tarixdan olgan «2» bahoying «4» bo'ldi. Lekin tarixni bilmasang, yaxshi artist bo'lolmaysan. Qorbobo rolini qoyillatgan Hakima Ashurmetovaga yana bitta besh!


(Davomi bor).

«PRYANIK»

Massa: 1 st. shakar, 200gr. margarin, 200 gr. qatiq, 3 dona tuxum, 3 qoshiq asal, choy qoshiqda iste'mol soda va xamir bo'lgunicha un.

Tayyorlanishi: Tog'orachaga margarinni to'g'rab, sodali qatiq, tuxum sarig'i, asal solib aralashiriladi va un solib yumshoq xamir qoramiz. Xamirni yarim soatga tindirib qo'yamiz.

Tingan xamirni bir burda non bo'lagichalik uzib gaz patnisiga terib chiqamiz va gazda 25 daqiqa o'rtada olovdan pastroqda pishirib olamiz.



Shirin kulcha pishgunga qadar ustiga surish uchun krem tayyorlab olamiz. Tuxum oqini yaxshilab ko'pirtirib, qattiq ko'pik bo'lgandan so'ng unga 1 st. shakar asta-sekin solamiz.

Ochil dasturxon

Hozirei kunda har bir xonadonda shirinliklarga qiziqib o'qimagan qizlar qolmagan bo'lsa kerak. Ayniqsa ta'til kunlarida uyda zerikib qolgan qizlar oylik kurslarga borib o'reanadilar. Lobar qizlar, gazetamizning ushbu sonida sizlarga ajoyib shirinliklar va salatlar pishirish sirlarini o'rgatmoqchimiz. Marhamat, o'qib o'reaning, xonadoningizning sevimli, qo'li shirin bekasi bo'ling. Bularning barisi o'zingizga bog'liq.

Gazdagi pishgan shirin kulcha xamirini olib, sovitib, ustiga tayyorlagan kremni surib chiqamiz. Uning ustiga shokolad qirib sepiladi yoki o'zimiz shokolad suyuqligini tayyorlab quyishimiz mumkin.

Shuncha massaliqdan 20 dona Shirin kulcha chiqadi.

«BAHOR» SALATI

Massa: 2 kg. bodring, 1,5 kg. pomidor, 0,5 kg. go'sht, 500 gr. mayonez, 5 ta tuxum, turli ko'katlar, 2-3 dona piyoz va tuz.


Tayyorlanishi: Bodring va pomidorni, pishgan go'shtni, suvda pishgan tuxumni somoncha shaklida mayda qilib to'g'rab olinadi. Piyoz va ko'katlar ham to'g'ralib, bir chimdim tuz solinadi. Hammasi aralashirilib, mayonez ham solib, 3-4 qoshiq salat yog'idan qo'shib yuborilsa salatga yanada maza beradi.

Ushbu massaliqdan bir tog'ora salat chiqadi.

Foydali va me'yorda ovqatlanishni unutmang.

Gulnoza QOSIMOVA.





ODAMI ZOT

Insonlarni yaratib bo'lib,
Turfa xislat beribdi Oллоh.
Shu sababdan insonlar har xil,
Birov g'amgin, birovlar quvnoq.
Ba'zilarga mardlik fazilat,
Ba'zilarning shiori yolg'on.
Kimlargadir yaxshilik xislat,
Yana kimning niyati yomon.
Kimlarningdir dillari toza,
Ayrimlarni kemirar hasad.
Dili pokda niyat pokiza,
Kimlar buning aksidir, ajab.
Inson zotin imonlisi ko'p,
Bor imonsiz, g'anamlari ham.
Bu dunyoda kimdir nonga zor,
Ba'zilarning qorni bilmas g'am.
Ba'zilar-chi, to'ysa ham o'zi,
Sira ikki ko'zi to'yamaydi.
Sofdillarning nurlidir yuzi,
Qaloblarda vijdon bo'lmaydi.
Ana shunday odam bolasi,
Har birida o'zgacha bir sir,
Yaxshisin ham, yomon olasin,
Boy, kambag'al - borar joyi bir.

Maqsadxon HAKIMOVA,
Chilonzor tumanidagi
181-maktab o'quvchisi.



BIZNING TO'GARAK

«Yosh qalamkashlar» to'garagimizning bu galgi mashg'ulotida ishtirok etish uchun «mehmon» qidirib uzoqqa bormadik. Tahririyatimizda uzoq yillardan beri ishlab, maktab va bolalar hayoti bo'limini boshqarib kelayotgan, iste'dodli jurnalist Feruzaxon Odilovani davramizga taklif qildik.

- Juda yaxshi qildingiz-da, Feruza opamizga beradigan savollarimiz yig'ilib qolgandi.-xursand bo'lib ketishdi bolalar...

Ularning, ta'til kunlarida qanday mavzularda maqolalar yozish kerak?


Maqolalarimizni nashrga tayyorlash jarayoni haqida gapirib bering. Viloyatlardagi tengdoshlarimizning xabar va lavhalari qanday yetib keladi? - kabi juda ko'plab savollariga Feruza opalari hech erinmasdan, batafsil javob berdilar. Ulardek jurnalist bo'lishni orzulagan qalamkashlarga yo'nalish va topshiriqlar berib, o'z ijodlaridan namunalarni o'qidilar. O'z navbatida to'garak ishtirokchilarimiz ham she'riy mashqlaridan, mitti hikoyalardan o'qib, o'zaro fikr almashishdi.



BOG'BONGA RAHMAT

Dehqon bobo har yili,
Bahorda ekin ekar.
Parvarishlab mehr-la,
O'ssin deya ter to'kar.
Kuz keldi dehqon bobo,
Ko'tarar mo'l-ko'l hosil.
Totli meva yeganda,
Dehqon bobo qadrin bil.

D. ERKINOVA,
Toshkentdagi
45-maktab o'quvchisi.



ONAJON

Onajon, siz bo'lmasangiz,
Ma'no yo'qdir hayotimda.
Bedor aytgan allangiz
Kechagiday yodimda.

Dunyo turguncha turing
Biz farzandlar baxtiga.
Yetkazdingiz kamolga,
Vafodorlar ahdigaga.

Tengi yo'q mo'tabarsiz,
Siz bilan yashnar jahon.
Ko'zimga ziyo bergan
Onajonim, onajon.

Jasurbek UMRZOQOV,
Samarqand viloyati, Narpay
tumanidagi
30-litseyning
7-sinf o'quvchisi.



ASKAR AKAMGA

Akajonim siz bu kun askar bo'ldingiz,
Olislarda bizlarni eslab turingiz.
Yigitlik burchingiz a'loga o'tab,
Hech xormay Vatanga xizmat qilingiz.
Harbiy kiyimingiz yarashdi juda,
Ismi ham jismiga mos Javlon akam.
Dilida zo'r g'urur, sergak posbonim,
Yurtim xizmatiga shay, har on akam.

Dilshoda ISMOILOVA,
Yunusobod tumanidagi
105-maktabning 4- «V» sinf o'quvchisi.

BOSHQOTIRMA


Bo'yiga:

1. «Devona» bo'lgan tol. 2. Mevaning lat yeyishi. 3. Hamdu sano. 4. Rossiya oliy davlat organi. 5. La'natlangan shayton. 6. Oliy liga futbol jamoasi. 7. Kemiruvchi hayvon. 9. Ko'zboylog'ich. 13. Samolyot zinasini. 14. R. Tagorning «Gang daryosining qizi» asari qahramoni. 16. Yalinish. 17. Payg'ambarlardan biri. 20. A.Qodiriy taxallusi. 21. Afrikadagi davlat poytaxti. 22. Shikast. 23. Astarining hamrohi. 24. Halqasimon. 25. Dinozavr turi. 30. Avlod, sulola. 31. Boshqoqli ekin. 32. Ta'na, tanbeh. 33. Matematik atama.

Eniga:

1. Saroy xizmatkori. 4. O'zbek operasi. 8. Eski tos, eskida xodimi mutaxassisi. 10. Puf lab chalinadigan musiqa asbobi. 11. Yigitga yarashmaydi. 12. Ruhoniy. 14. Harbiy amaldor. 15. Italiyaning poytaxti. 18. Harf teruvchi mashina. 19. Igna uchi yaltiroq (topishmoq). 20. Leonardo Da Vinchinging eng mashhur asari. 23. Atoqli hind aktyori Bachchan. 26. Uning qadriga zargar yetadi. 27. Ustachilik asbobi. 28. Gananing markaziy shahri. 29. Nola chekuvchi. 33. Og'ir yuk avtosi. 34. Biror maqsad uchun yig'ilgan pul. 35. Majlis, anjuman. 36. Teng.

Durbek SADIROV,
84-maktabning
9-sinf o'quvchisi.



Alisher Navoiy! G'azal mulkingning sultoni, ulug' bobolarimizdan biri. Biz orzu qilgan va sevib o'qiydigan asarlarni yarata olgan aziz inson!

Ha, hech bir inson bo'lmasa kerakki, Navoiy asarlarini o'qimagan. Albatta har birimiz uning asarlarini juda-juda sevib o'qiydigan. Masalan, bulardan «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin»... bunday bebaho asarlarning sanog'i yo'q. Bu asarlar xuddi kechagina bitilgandek. Kitob javonida turgan kitoblar juda ko'p, lekin Navoiy asarlari o'zgacha. Men uni olib asta varaqlayman va bir necha marotaba o'qigan bo'lsam-da, «Farhod va Shirin» asarini quvonch va ming bir havas bilan yana o'qiyman. O'qib bo'lgach esa bizning zamonamizda

ham asarda tasvirlangandek, biz qadrlaydigan, havas qiladigan chin sevgi bormikan, deya chuqur o'yga tolaman. Zamonamiz Farhodini, Shirinini axtaraman va o'zimgacha

QAHRAMONLARDAN O'RNAK OLAYLIK

fikr yuritaman. Bizning zamonamiz Farhodlari bugun Shirinni sevadilar, ertasi kuni Zuhrosiga o'tib ketadilar. Zamonamiz Farhodlari chopqirlikdan, ephillikdan, polvonlikdan emas, Shirin va Zuhrolarni orttirishdan poyga o'ynaydigan bo'lib ketganlar. Xo'sh, nega, nima uchun? Balki biz yoshlarda muhabbat haqida tasavvur yo'qdir. Bunga yana kattalar aybdormi? Shu o'rinda Navoiy, uning asarlari bizga ota,

ona, murabbiy deyishim mumkindir. Darhaqiqat, sevgi savdosi har kimning boshida bor, albatta. Ana shunday hollarda inson nima qilarini bilmay qoladi.

Maslahatchi inson, sirdosh do'st axtaradi. Shaxsan bunday

Tahririyatdan

Aziz o'quvchilar, muxbirimiz Adolatxon siz uchun ham notanish bo'lmagan muhabbat mavzusini qalamga olibdilar. Yashirib nima qilamiz. Azir Romeo 16. Juletta esa 14 yoshida asrlarga ertak bo'lgulik ishq muhabbat topgan ediku. Shuning uchun ham, ta'til kunlaringizda yaqin sirdoshingiz, dilga yaqin safdoshingiz to'g'risida bizga maktub yo'llang. Balki muhabbatningiz, balki shirin azoblaringiz yashiringan bo'lar bu maktublaringizda. Biz ham dil so'zlaringizni nomingizni yashirgan holda tengdoshlaringizga havola qilamiz. Yo'l-yo'riq ko'rsatib, noyob tuyg'ungizni asrab-avaylashga undaymiz. Kelgusi sonlarimiz sizning lo'nda qilib aytganda ishqiy hamda o'ziga xos sirli maktublaringiz asosida tayyorlanadi.

vaziyatlarda Navoiyning asarlarini qayta-qayta o'qib, o'zimga kerakli xulosalar chiqarib olgan kezlarni ham bo'lgan.

Istardimki, ulug' bobomizning umrboqiy asarlari har bir qalbda navo, yoqimli kuyday jaranglab tursin.

FAYZIYEVA Adolat
G'AYRAT qizi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxonaning manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-2692

Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08